

SURXONDARYO VILOYATI TASHQI IQTISODIY ALOQALARI

**Xolboyeva Marjona Xayrullayevna Termiz davlat universiteti
geografiya ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi Termiz, O'zbekiston**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining o'ziga xos geosiyosiy o'rni, xalqaro transport-logistika yo'laklaridagi roli hamda tashqi iqtisodiy faoliyatining bugungi holati tahlil qilingan. Vohaning eksport va import tarkibi, meva-sabzavotchilik va sanoat salohiyati, shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etish dinamikasi yoritilgan. Maqolada chegaraoldi savdosidagi mavjud to'siqlar o'rganilib, xalqaro iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish va diversifikatsiya qilish bo'yicha amaliy taklif va strategik tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Tashqi iqtisodiy faoliyat, eksport, import, logistika, Termiz xalqaro savdo markazi, investitsiya, sanoat kooperatsiyasi.

Аннотация: В статье анализируются уникальное геополитическое положение Сурхандарьинской области, ее роль в международных транспортно-логистических коридорах и текущее состояние внешнеэкономической деятельности. Освещены структура экспорта и импорта региона, потенциал плодоовощной и промышленной отраслей, а также динамика привлечения иностранных инвестиций через свободные экономические зоны. В работе изучены существующие барьеры в приграничной торговле, а также выдвинуты практические предложения и стратегические рекомендации по дальнейшему расширению и диверсификации международных экономических связей.

Ключевые слова: Внешнеэкономическая деятельность, экспорт, импорт, логистика, Международный торговый центр Термез, инвестиции, промышленная кооперация.

FOREIGN ECONOMIC RELATIONS OF SURKHANDARYA REGION

Kholboyeva Marjona Khayrullayevna 2nd year student of geography at Termez State University Termez, Uzbekistan

Annotation: This article analyzes the unique geopolitical position of Surkhandarya region, its role in international transport and logistics corridors, and the current state of its foreign economic activity. The export and import structure of the oasis, the potential of fruit and vegetable growing and industry, as well as the dynamics of attracting foreign investment through free economic zones are covered. The article examines existing barriers to cross-border trade and puts forward practical proposals and strategic recommendations for further expansion and diversification of international economic relations.

Keywords: Foreign economic activity, export, import, logistics, Termez International Trade Center, investment, industrial cooperation.

O‘zbekiston Respublikasining eng janubiy hududi hisoblangan Surxondaryo viloyati o‘zining geosiyosiy o‘rni, boy tabiiy resurslari va ulkan agrosanoat salohiyati bilan mamlakat iqtisodiyotida alohida mavqega ega. So‘nggi yillarda respublikamizda olib borilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar, tashqi siyosatdagi ochiqlik va qo‘shnichilik aloqalarini mustahkamlash strategiyasi Surxondaryoning tashqi iqtisodiy faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Viloyat kesimida 2025-yil yanvar-mart oylarida viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 244 384,8 ming AQSH dollariga yetdi va 2024-yil ning yanvar-mart oylariga nisbatan 143 793,5 ming AQSH dollariga yoki 2,4 b. ko‘paydi. TSAda eksport hajmi 120 504,7 ming AQSH dollariga (2024-yil ning yanvar-mart oyiga nisbatan 2,3 b. ko‘paydi) va import hajmi 123 880,1 ming AQSH dollariga (2,6 b. ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida – 3 375,4 ming AQSH

dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi. Surxondaryo viloyati jahonning 60 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib


kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Afg'onistonda (19,2 %), Birlashgan Arab Amirliklarida (14,9 %), Pokistonda (6,1 %), Rossiyada (3,9 %) va Xitoy Xalq Respublikasi da (2,5 %) qayd etilgan.

Surxondaryo viloyatining yirik hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (ming AQSH dollari) *1-JADVAL*

N	Davlatlar	2023	2024	2025
1	Afg'oniston	3942.3	6 448,8	90 472,1
2	BAA	408.8	95,8	76 382,2
3	Pokiston	22532.0	21 911,2	20 023,1
4	Rossiya Federatsiyasi	6384.9	12 299,7	12 514,3
5	Xitoy	18 476.3	15 168,0	12 449,2
6	Germaniya	360,1	1671,4	6 198,0
7	Italiya	1 634,1	59,4	4 926,2
8	Turkiya	6 179,6	29 038,5	4 911,1
9	Belgiya	4,8	8,6 4	812,5
10	Qozog'iston	5 033,3	2 923,3	4 159,0
11	Xindiston	1 503,1	2 114,2	1 989,6
12	Daniya	-	252,6	1 018,5
13	Tojikiston	2 708,8	499,5	985,8
14	Eron Islom Respublikasi	1 413,7	1 919,2	791,2
15	Latviya	0,1	168,0	336,1

Eksport tarkibi : Surxondaryo viloyatining eksport tarkibida paxta tolasi, oziq ovqat mahsulotlari yetakchi o'ringa ega. 2025 yil yakunida viloyatning eksport hajmi 507,5 mln dollarni (*respublikadagi ulushi 1,5%*) tashkil qilib, o'tgan davrga nisbatan 86,2% ga o'sgan. Eksport tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi – 44,7%, turli xil tayyor buyumlar 20,3%, sanoat tovarlari – 8,4%, xizmatlar –

2,5%, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilgʻidan tashqari) – 2,2%ni tashkil qilgan. BAA (39,6%), Afgʻoniston (26,1%), Pokiston (12,7%), Rossiya (12,2%), Qozogʻiston (1,9%) va Turkiya (1,3%) tovarlar va xizmatlar eksporti boʻyicha asosiy hamkor davlatlar boʻlgan.




2025-yil yanvar-mart oylarida 29 499,4 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan boʻlib, ushbu koʻrsatkich 2024-yil ning mos davriga nisbatan 54,1 % yoki 34 786,7 tonnaga kamaydi. 2025-yil yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi boʻlgan 29 400,6 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu koʻrsatkich 2024-yil ning mos davriga nisbatan 3,9 % ga koʻpaydi va jami eksportdagi ulushi 24,4 % ni tashkil etdi. 2025-yil yanvar-mart oylari yakuni boʻyicha 7 415,1 ming AQSH dollarilik toʻqimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 6,2 % ini tashkil etib, oʻtgan yilga nisbatan 62,6 % ga kamaydi. Eksport qilingan toʻqimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (84,1 %), gazlamalar (11,3 %), asosiy ulushni

egallagan. Xizmatlar eksporti hajmi 1 374,4 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 1,1 % ini tashkil etib, 2024-yil ning mos davriga nisbatan 0,6 % ga ko‘paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (33,3 %), moliyaviy xizmatlar (32,5 %) boshqa tadbirkorlik bilan bog‘liq xizmatlar (14,7 %), safarlar (turizm) (13,5 %), va transport (6,1 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan

Import tarkibi: 2025-yilning yanvar-mart oyida import hajmi 123 880,1 ming AQSH dollariga yetdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,6 % ko‘paydi.

Import tarkibida eng katta ulush, Boshqa tovarlar (60,5 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (24,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (10,1 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (2,3 %) hisobiga to‘g‘ri keldi



2025-yil yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyati 36 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar Afg'oniston (62,8 %), XXR (10,0 %), Pokiston (6,3 %), Germaniya (5,0 %), Italiya (4,0 %), Belgiya (3,9 %) va Hindiston (1,6 %) jami importning 3/4 qismini tashkil etdi. 2025 yilning yanvar-mart oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 362,9 ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining 0,3 % ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan

66,5 % ga ko‘paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa tadbirkorlik bilan bog‘liq xizmatlar (54,6 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (45,3 %) va moliyaviy xizmatlari (0,1 %)ga tegishli bo‘ldi. Muxtasar qilib aytganda, Surxondaryo viloyati nafaqat O‘zbekistonning janubiy darvozasi, balki mintaqaviy savdo va iqtisodiy integratsiyani harakatga keltiruvchi muhim drayver hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy aloqalarni tizimli rivojlantirish viloyatning barqaror iqtisodiy o‘shirishini ta’minlash va aholi farovonligini oshirishning eng to‘g‘ri yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Солиев А.ва бошқ.минтақавий иқтисодиёт.–Т., 2003.
2. Солиев А. Ўзбекистон географияси. Т.: Университет, 2014, 404 б.
3. Солиев А., Назаров М., Курбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоий иқтисодий ривожланиши . –Т.: “Мумтоз сўз”, 2010.
4. Солиев А. Ҳудудий мажмуаларнинг назарий асослари. (Ўқув қўлланма) Т., 2007, 90 б.
5. О‘zbekiston hududlarining yillik statistika to‘plami. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi. Т.:, 2019, 11-14б.